

СЎЗ САЊАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

5 ЖИЛД, 3 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 5, НОМЕР 3

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 5, ISSUE 3



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№3 (2022) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2022-3>

Бош мухаррир:

Холбеков Муҳаммаджон

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош мухаррир ўринбосари:

Тўхтасинов Илҳом

ф.ф.д., доцент (Ўзбекистон)

Главный редактор:

Холбеков Муҳаммаджон

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Заместитель главного редактора:

Тухтасинов Илҳом

к.ф.н., доцент (Ўзбекистон)

Editor in Chief:

Kholbekov Muhammadjan

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

Tuhtasinov Ilhom

Ph.D. Ass. Prof. (Uzbekistan)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўгли

ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммаед

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт

Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддиқова Ирода

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

ф.ф.д. (Грузия)

Юсупов Ойбек

масбул котиб, доцент (Ўзбекистон)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умар оғли

д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бокиева Гуландом

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммаед

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт

Университет Мичигана (США)

Умархўжаев Мухтор

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Балтабоев Ҳамидулла

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Дустмухаммедов Хуршид

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Сиддиқова Ирода

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

д.ф.н. (Грузия)

Юсупов Ойбек

отв. секретарь, доцент (Ўзбекистон)

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov

academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli

Doc. of philol. sci., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova

Doc. of philol. sci., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim

Doc. of philol. sci., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail

Doc. of philol. sci., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed

Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort

University of Michigan (USA)

Umarkhodjaev Mukhtar

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar

Doc. of philol. sci. (Georgia)

Yusupov Oybek

Ass. prof. (Uzbekistan) - Senior Secretary

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

1. Sharipov S.S. ЛЕКСИКОГРАФИЯ (ТАРЖИМА ЛЕКСИКОГРАФИЯСИ) РИВОЖЛАНИШИНИНГ АСОСИЙ ЖИҲАТЛАРИ.....	5
2. Akhadova Guzal Imatulloevna, Mavlyanova Nilufar Suvankulovna METHODOLOGY AND PRINCIPLES OF USING ROLE PLAYING IN FOREIGN LESSONS.....	12
3. Atayeva Khusniya Kurashevna, Fayziyeva Yulduz Yusupovna USING INTERACTIVE TECHNOLOGIES AND TEACHING METHODS AT THE RUSSIAN LANGUAGE LESSON.....	17
4. Absamatova Gulhayo Bakhodirovna LINGUISTIC FEATURES OF SIGN LANGUAGE AUTOMATIZATION.....	24
5. Shuhratova Visola jamshid qizi KAZUO ISHIGURONING "DAFN ETILGAN GIGANT"ASARIDAGI KONSEPTLAR UYG'UNLIGI.....	30
6. Bazarova Shahlo Shuxratovna KOREYS ADIBASI SHIN KYON SUK IJODINING O'ZIGA XOSLIGI XUSUSIDA.....	36
7. Kasimova Adiba Nasirovna TRANSLATION METHODS AND TECHNIQUES OF PUBLICISTIC MATERIALS.....	41
8. Арзикулова Хуршида Акабаралиевна “ГОРАЦИЙ” ТРАГЕДИЯСИДА ИНСОНИЙ ФАЗИЛАТЛАР ВА ОИЛАВИЙ БУРЧ.....	47
9. Mamadjanova Nargiza Mahmudjanovna ZAMONAVIY INGLIZ TILIDA MUROJAATNING KOMMUNIKATIV FUNKSIYASI.....	52
10. Икромова Нигина ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ И ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕВОДА ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТЕКСТА (НА ПРИМЕРЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ Ч.АЙТМАТОВА “ПРОЩАЙ, ГУЛЬСАРИ!”).....	58
11. Абдусаматов Зафарбек Нурмат ўғли ЎЗБЕК ТИЛИДА АНТРОПОНИМЛАР ТУРИ ВА ИФОДА ШАКЛЛАРИ.....	65
12. Abduraxmonova Nilufar Zaynobiddin qizi, Vosiljonov Azizbek Boxodirjon o'g'li O'ZBEK TILI ELEKTRON KORPUSIDA DIALEKTAL KORPUS YARATISHNING NAZARIY MASALALARI.....	70
13. Achilova Noila Hamroqulovna SUYUQLIK MIQDORINI ANGLATUVCHI LISONIY BIRLIKLARNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI.....	75
14. Tadjibayeva Gulzoda ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA ANTROPOTSENTRIK PARADIGMA.....	81
15. Begimqulova Dilobar INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA REDUPLIKATIVLIKNING MORFOLOGIK IFODALANISHINING QIYOSIY TAHLILI.....	86
16. Amonova Zilola Qodirovna, Axrorova Zufnunabegim Rizvonovna HUSAYNIYNING BADIY MAHORATI.....	93

17. Наргиза Жахонова ТАВТОЛОГИЯ ВА ПЛЕОНАЗМНИНГ ЎРГАНИЛИШ ТАРИХИГА БИР НАЗАР.....	99
18. O`dayeva Shahnoza Shuxratovna RANG, MAZA-TA`M MA`NOSINI ANGLATUVCHI LISONIY BIRLIKLARNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI.....	105
19. Gaybullayeva Malokhat Pulatovna HISTORICAL DEVELOPMENT OF ENGLISH DIALECTS.....	111
20. Xamrayeva Zebiniso Xaydar qizi QO`SHMA GAPNING STRUKTUR – SEMANTIK TAHLILI (INGLIZ TILI ASOSIDA).....	116
21. Umaraliev Dildora Takhirjanovna PECULIARITIES OF LEGAL TERMS.....	122
22. Дилноза Раматжановна Рузматова ХОЛИД ҲОСИЙНИЙ АСАРЛАРИДА АФҒОНИСТОН ПЕРСПЕКТИВАСИ: ТАРИХИЙ ВА БАДИИЙ ТАЛҚИН.....	128
23. Sodiqova Yulduz Furqatovna LITERARY TEXT AS AN OBJECT OF LINGUISTIC RESEARCH AND THE PROBLEM OF ITS INTERPRETATION.....	134
24. Bozorbekov A. LOGISTIKA TERMINOLOGIYA TIZIMINING XUSUSIYATLARI.....	138
25. Ulikova Mavluda CRITERIA FOR THE SELECTION OF TERMS DENOTING FAMILY TIES.....	144
26. Воситов Валижон Абдувахобович ИНГЛИЗ ТИЛИДА ТУРКИЗМЛАРНИНГ ПАЙДО БЎЛИШ САБАБЛАРИ.....	150
27. Холибекова Омонгул Кенжабоевна ИНГЛИЗ ТИЛИДАГИ АЛЛЮЗИВ ФРАЗЕОЛОГИК БИРЛИКЛАР ТАЛҚИНИ.....	155
28. Дилбар Холтемировна Ниязова ЎЗБЕК ТИЛИДА ЛИСОНИЙ ШАХС ТИПЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШГА ХИЗМАТ ҚИЛУВЧИ МАХСУС БИРЛИКЛАР.....	160
29. Шамахмудова Азиза Фуркатовна ҲУРМАТ ТАМОЙИЛЛАРИНИНГ ГЕНДЕР АСПЕКТЛАРИ.....	167
30. Azimov Abdikhamidullo Xolmanovich TO'PLAM IBODATLAR TURLARI VA ULARNING TASNIFI PRINSIPLARI.....	173
31. Boboyev Temur Mahmadmurodovich ROLE OF SHORT HUMOROUS POEMS IN DIFFERENT CULTURAL BACKGROUNDS...	178
32. Ж.О. Каниязова Ш.СЕЙТОВТЫҢ «ЖАМАНШЫҒАНАҚТАҒЫ АҚТУБА» ҲӘМ Ш.ХАЛМЫРЗАЕВТЫҢ “ОЛАБЎЖИ” РОМАНЛАРЫНДА ТУБАЛАЎШЫЛЫҚ ДӘЎИРИНИҢ СУЎРЕТЛЕНИЎИ.....	184
33. Shukurov Foziljon Mahmadvovich TEMURIYLAR DAVRI SHOIRI - BISOTIY SAMARQANDIY G`AZALLARINING POETIKASIDA YANGILIKLAR.....	192




ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

Bazarova Shahlo Shuxratovna
Samarqand davlat chet tillar instituti
Sharq tillari fakulteti
Uzoq sharq tillari katta o'qituvchisi

KOREYS ADIBASI SHIN KYON SUK IJODINING O'ZIGA XOSLIGI XUSUSIDA

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.6642159>

ANNOTATSIYA

Shin Kyon Suk asarida o'z davrini ifodaladi, birinchi navbatda, real tirik shaxslarni, "harakat"dagi tartib qoidalarni, kishilar o'rtasidagi munosabatni nazarda tutgan, mislsiz darajada zo'r satirik kuchini va mahoratini ravshan namoyish qila olgan. Shin Kyon Suk ijodida ayollar mavzusi alohida o'rinni egallaydi. U lirik qahramonning maktublarini keltirish orqali poetik imkoniyat yaratib g'oyaviy mazmuni rivojlantiradi. Yozuvchi erkak va ayol yonma-yon yashaydigan jamiyat, erkak va ayol insoniy jihatdan teng bo'lgan jamiyatning imkonsizligini bevosita boshdan kechiradi va jamiyatimizdagi ayollarga nisbatan zulm haqiqatini ochiq va oydin tarzda o'z asarida qiynalgan ayol obrazlari orqali aks ettiradi.

Kalit so'zlar: sinsosol, Kabo, aneksiya, xangil, xanmun, feministik, fisgarmoniya, modernizatsiya, epistolyar uslub.

Базарова Шахло Шухратовна

Самаркандский государственный институт иностранных языков
Факультет восточных языков
Старший преподаватель языков Дальнего Востока

СПЕЦИФИКА ПРОИЗВЕДЕНИЯ КОРЕЙСКОЙ ПИСАТЕЛЬНИЦЫ ШИН КЁН СУКА

АННОТАЦИЯ

В своем творчестве Шин Кён Сук рассматривает период формирования прежде всего, реальными живыми существами и взаимоотношениями между людьми, он сумел наглядно продемонстрировать свою беспримерно большую сатирическую силу и мастерство в свои произведения. Тема женщин занимает особое место в творчестве Шин Кён Сука. Она развивает идейное содержание, создавая поэтическую возможность, цитируя письма лирического героя. Писатель непосредственно переживает крах общества, в котором мужчины и женщины живут бок о бок в обществе, в котором мужчины и женщины одинаково человечны, и ярко изображает реальность угнетения женщин в нашем обществе через образы замученных женщин в своем произведении.

Ключевые слова: синсосоли, мыс, аннексиа, ганг, ханмун, феминистка, фисгармония, модернизация, эпистолярный стиль.

Bazarova Shahlo Shuxratovna

Samarkand State Institute of Foreign Languages

Faculty of Eastern Languages

A senior teacher at the Department of Far Eastern Languages

THE SPECIFICITY OF THE WORKS OF THE KOREAN WRITER SHIN KYON SOOK

ANNOTATION

Shin Kyung Sook first of all considers the period of formation with real living beings and relationships between people, he was able to clearly demonstrate his unparalleled great satirical power and skill in his works. The theme of women occupies a special place in the work of Shin Kyung Sook. She develops the ideological content, creating a poetic opportunity by quoting the letters of the lyrical hero. The writer directly experiences the collapse of a society in which men and women live side by side in a society in which men and women are equally human, and vividly depicts the reality of the oppression of women in our society through the images of tortured women in his work.

Keywords: sinsosol, Cape, annexation, gangue, khanmun, feminist, fisgarmoniya, modernization, epistolary style.

Kirish. XIX asrning oxirlarida Koreyada mamlakatning ochilishi munosabati bilan siyosiy, ijtimoiy sohalarda o'zgarishlar sodir bo'la boshlagan. Koreys hukumati G'arb davlatlariga nisbatan kuchli orqada qolishganligi anglagach iqtisodiy, harbiy, ilmiy hamda texnik sohalarda Evropa taraqqiyotiga murojaat qiladi. Koreyaga G'arbning Ilmiy-texnik g'oyalari bilan birga falsafiy va madaniy g'oyalari ham kirib keladilar. Adabiyotda yangi yo'nalishlar, oqimlar yuzaga (yangi nasr – sinsosol kabi) kelgan. “Kabo” yillarida (1894) o'tkazilgan siyosiy, iqtisodiy islohotlar ham muhim ahamiyat kasb etgan. XIX asrning oxiri va XX asrning birinchi o'n yilligida jamiyatda faol amalga oshirilgan modernizatsiya 1910 yil avgustida Koreya anneksiyasi (Yaponiyaning qo'shib olinishi) munosabati bilan to'xtagan. “Yapon mustamlakachilari tomonidan rivojlanish harakatlari deyilsada, aslida koreys xalqining milliy madaniyatini bostirishga, tilini, tarixini, madaniy mushtarakligini unutishga qaratilgan urinishlar bo'lgan” [1, 406.].

Mavzuning dolzarbligi. Anneksiyaning ilk yillaridayoq boshlangan vatanparvarlik kayfiyatlari 1919 yilning bahorlarida umummilliy qo'zg'olonlarga aylangan (mustaqillik uchun Birinchi mart harakatlari). Mazkur davrda gazeta va jurnallar bilan bir qatorda koreys xalqining hayotida badiiy adabiyotning o'rni beqiyos bo'lgan. Xanmundagi roman inqirozga uchrab, xangildagi zamonaviy nasr rivojlangan [2, 14.]. Ma'lumki, qadimiy Koreyada ayollarga birinchi navbatda odob-axloq bilan bo'g'liq konfutsianlik kitoblari o'qitilgan. Bilimlar tarbiyasi ayollarning ota va erining uyida o'zini tutishi, qanday fazilatlariga ega bo'lishlari, oilada maishiy hayotni tashkil etish, marosimlarni o'tkazish qoidalaridan iborat bo'lgan. Choson davlatida ilmu-fan bilan erkaklar shug'illanishgan. Aksariyat ayollarning ta'lim olishining iloji bo'lmagan. Zodagon ayollar adabiyot va rassomchilik bilan shug'ullanishlariga imkoniyatlar berilmagan. Ayollarni o'qishga xangilda (xangil-koreyscha alfavit bo'lib ayollar va oddiy xalqqa mo'ljallangan) o'rgatilgan. Erkaklar esa xanmunda (xanmum-koreys fonetikasiga mo'ljallangan xitoy tili) yozishgan va o'qishgan. Darsliklarda (규중요람1544y., 사소절1775y. va hokazo) ayol ta'limining muhimligi haqida fikrlar bildirilgan:

남자를 가르치지 않으면 내집을 망케하는 것이요, 여자를 가르치지 않으면 남의집을 망하게 하는 것이다. Erkakni o'qitmasa o'z uyim, ayolni o'qitmasa boshqaning uyi yo'q bo'ladi.

여자는 정절을 사모하고 남자는 재주를 본받는다

Ayol vafodor, erkak qobiliyatli bo'lishi kerak [3, 109.].

Tajriba qismi. Koreys ayollari yapon mustamlakasining (1910-1945) hamda milliy bo'linishning (1945) o'g'ir yillaridaham ijoddan to'xtashmagan. O'z ovozigacha ega koreys feminizmi vakillari ayollar mavzusida asarlar yaratishda davom etgan. Ular madaniy va siyosiy qiyinchiliklarni

(Davlat Yapon senzurasida ziyolilar ustidan nazoratni kuchaytirib, koreys tilida asar yozishni man qilish darajasigacha borganligi kabilar) yengib bugungi kungacha davom etib kelayotgan izchil adabiy an'analarini yaratishga kuch topganlar. Koreya 1945 –yilda yapon mustamlakachiligidan ozod bo'lgan. Adiba va shoirlar soni ko'paygan. 1953 Koreya urushidan keyin Son So Hee (손소희 孫素熙 1917-1986), Xan Mal Suk (한말숙 韓末淑, 1931 yilda tug'ilgan), Pak Kyon Ni (박경리 朴景利, 1927 yilda tug'ilgan)larning ijodi alohida o'ringa ega. Adabiyotshunos olim Kim Chi Suning e'tirofiga ko'ra "Feministik nasrda muallif ayol asarining bosh qahramoni sifatida ayolni tanlaydi va erkak kuchiga asoslangan ta'lim, madaniyat tizimi xotin-qizlardan insonligidan faxrlanish hissiyatini tortib olishini ko'rsatadi" [4, 100.]. Mazkur ta'rif 1970 yillargacha bo'lgan asarlarga to'g'ri keladi. 1990 yillarda koreys adabiyotida yangi ayol - faqat oilasini emas, balki o'zini ham o'ylaydigan, erkakdan moddiy qaram bo'lmagan ayol timsoli yaratilgan. Biroq, jamiyatning konservativ qarashlari tomonidan qoralangan. Natijada o'zlarini erkin his qilib yangicha yashamoqchi bo'lgan xotin - qizlar va eski tartib – qoidalar to'liq qoniqtirgan erkaklar orasida ziddiyatlar yuzaga kelgan. "Erkak va ayol bu yorug' olamda birgalikda tinch, totuv yashashlari kerakligi uchun ular o'rtasida o'zaro yaxshi munosabatlarni saqlab qolish yo'llarini izlab topish zarur bo'lgan. Shunday izlanishlar natijasida feminizmga nisbatan tamoyillar paydo bo'lib yangi davr ijodkorlarining asarlarida ifodasini topgan" [5, 468.]. Ular asarlaridagi ayollar o'z nuqtai nazarlariga, tanlovlariga ega bo'lish bilan birga baxtli bo'lishga, uyg'unlikka intiladilar.

Olingan natijalar taxlili. Shunday adibalardan biri Shin Kyon Suk -신경숙. Adiba 1963 yil 1-yanvarda Shimoliy Cholladoda tavallud topgan. Shin Kyon Suk ijodida ayollar mavzusi alohida o'rinni egallaydi. Uning 1985 yilda nashr qilingan ilk hikoyasi "Qishgi masal"- 겨울무화 "Yangi yozuvchi" mukofotiga sazovor bo'lgan. Shundan keyin bir qancha hikoyalari, qissalari, romanlari mashhur bo'lgan. "Chuqur qayg'u"- "깊은 슬픔"(1994), "Berk xona"- "외딴방"(1995), "Ilgari, uyni tark etganimda"- "오래 전 집을 떠날 때"(1997) asarlarining chop etilishi bilan "Shin Kyon Suk 1990 yillarning eng mashhur ijodkoriga aylandi" [6, 420.]. "Fisgarmoniya turgan joyda" (풍금이 있던 자리) asari ham kitobxonlarning va tanqidchilarning diqqatini tortgan asarlardan hisoblanib muallifga "Xanguk ilbo" (Koreya axborotnomasi) nashriyotining mukofotini bergan. Hikoya epistolyar uslubda yozilgan. Hikoyaning bunday shakli yozuvchiga o'z lirik qahramonining hissiy, psixologik holatini yanada teranroq yetkazish imkonini bergan. Maktubning shakli, aniqrog'i bir nechta harflar, ularning orasidagi chegaralar juda shartli bo'lib, his-tuyg'ular, tajribalar bilan to'ldirilgan, suhbat uslubiga yaqinlashadigan maxsus tildan foydalanishga imkon beran. U lirik qahramonning maktublarini keltirish orqali poetik imkoniyat yaratib g'oyaviy mazmunni rivojlantiradi. Nomalar qiz qalbining iztiroblarini mahorat bilan tasvirlagan. Maktublarda o'z sevgilisiga intizor, undan ayriliqda fig'on chekayotgan sevguvchi qalbning eng jo'shqin, eng dardmand, eng ma'yus nidolari ifoda etiladi. An'anaviy maktub qizning obraziga qo'shimcha tavsifnomadir. Maktubda qizning nafaqat ayriliqdagi fig'onlari, qolaversa uning yigitning oilasiga achinishi, milliylik – ehtiros qancha kuchli bo'lmasin odob doirasidan chetga chiqmaydi, oriyatlilik-erksizlik zanjirlarini uzish mumkin, ammo qizlik sha'ning zanjirlarini uza olmaydi. Adiba ma'shuqa nomalarini bir syujet chizig'iga kiritib ichki kechinmalarini tasvirlaydi. Lirik tasvirning evaziga yangi ruhdagi noma yuzaga kelgan. Qizning ahvolini va qisman o'z ahvolini aks ettirganligi barobarida davrining illatlarini qoralagan. Shin Kyon Suk asarida o'z davrini ifodaladi, birinchi navbatda, real tirik shaxslarni, "harakat"dagi tartib qoidalarni, kishilar o'rtasidagi munosabatni nazarda tutgan, mislsiz darajada zo'r satirik kuchini va mahoratini ravshan namoyish qila olgan.

Asar tuzilishiga ko'ra hikoyadagi hikoya. Ikki sevgi tarixi. Biri hozirgi zamonda, ikkinchisi qahramonning bolalik xotiralari. Bir tarixning qahramoni katta shaharda yashaydi. Sport markazida aerobika o'qituvchisi. Mustaqil ayol. Oilali erkakni sevadi. Birga yashashliklari uchun yigit mamlakatdan ketishni taklif qiladi. Jo'nash oldidan tug'ilib o'sgan qishlog'iga borib ota-onasi bilan xayrlashmoqchi bo'ladi. Ota uyida yoshligi xotiralari ko'z oldiga keladi: qishloq oilalarining birida

beshta aka-uka ulg'ayishmoqda. Ularning ichida to'rtinchi farzand olti yashar qizcha ham bor. To'ng'ich aka o'n uchga kirgan, kichkina farzand atigi uch oylik. Ularnikiga otasining yangi xotini keladi.

Koreys an'analariga ko'ra uylangan erkak xotinidan ko'ngli qolsa boshqa ayolga uylanishi va uni uyiga olib kelishi, birinchi xotini uyini tark etishi shart bo'lgan. Yangi xotin uning o'rnini bosishi lozim bo'lgan, ya'ni uy yumushlarini bajarish, erga g'amxo'rlik qilish, farzandlar tarbiyasi yangi rafiqaning zimmasiga o'tgan. Bu holat 1970 yillargacha davom etgan. Hikoya aynan shu mavzu asosida yaratilgan. Qizcha uylariga kirib kelayotgan ayolning go'zalligiga maftun bo'ladi. Bahorning yorqin kunlarining birida ikkinchi hikoya qahramoni "o'sha ayol"- (hikoyachi-qizaloq uni shunday deb ataydi) - oppoq, chiroyli kiyingan, maftunkor, undan ajoyib hid taraladi. "Osha ayolning" barcha harakatlarida maftunkorlik ufurib turadi. Hatto pishirgan ovqatlarining ta'mi ham o'zgacha, onasinikidan ko'ra mazaliroq.

Shin Kyon Suk nasr an'analariga asoslangan holda hikoyaning umumiy ohangi, samimiyligi, hissiyotlilikiga erishgan. Pauza va takrorlarni kiritgan, ya'ni og'zaki nutqni, fikr va his-tuyg'ular oqimini yarata olgan. Syujet rivojida, qahramonning maktubi o'ziga xos kundalikka aylanadi. Ushbu maktublar qabul qiluvchisining timsoli esa hikoyaning boshidayoq xiralashgan bo'lsa, oxirigacha o'z ma'nosini butunlay yo'qotadi. Qahramonning o'zi tan oladi: "Va keyin maktubning maqsadi ko'rinmadi. Siz nishon edingiz, lekin bir zumda men yozgan satrlar o'qqa aylandi va nishon g'oyib bo'ldi"[2].

Ammo adresatning yo'qolishi xatni tugatish uchun sabab bo'lmadi. Qahramon uchun yozish jarayoni o'ziga xos ruhiy tahlil, o'ziga yo'l va xotirjamlikni topishning yagona yo'li sifatida muhim. Qahramonning fikrlari aylana bo'ylab harakatlanadi, markazi uning hayotidagi asosiy, burilish nuqtasi - sevgilisi bilan mamlakatni tark etish qarori. Bunday dumaloq harakat, qahramon nutqidagi takrorlar tizimi uning psixologik holatini etkazish uchun mo'ljallangan. Butun hikoya qahramonning shunday jiddiy qadam tashlashi, hayotini o'zgartirishi, ya'ni "o'z hayotini o'ziga xos tarzda yashashga" qaror qilishi haqidagi fikrlaridir.

Oilada qolgan yigirma kun davomida, "o'sha ayol" katta akasidan tashqari barcha bolalarni o'ziga jalb qildi. Akasi uni "jodugar" deb atadi va kichiklarga o'gay onasini mensimaslikni ta'kidladi. Ammo qiz uni sevib qoldi, chunki u hayotida birinchi marta o'ziga e'tiborni his qildi. Katta o'g'li onasi uchun qasos olganiga, uning uchun fitna uyushtirganiga qaramay, "o'sha ayol" sabr-toqat bilan munosabatlarni yaxshilashga harakat qildi, ba'zida ko'z yoshlari va xafagarchilikni yashirdi. Ammo u uyga oilani buzuvchi sifatida kelgan va buni anglash, shubhasiz, unga sevgilisi bilan qolishga imkon bermadi. Biroq, ertasi kuni, onaning uyga qisqa tashrifidan so'ng, "o'sha ayol" haqiqiy ona chaqaloqni emizganini ko'rganida, onaning ko'zi begona odamga ko'rinmaydigan tartibsizliklarni payqaganda, o'zini ortiqchadek his qildi. Oilani butunlay tark etadi. Ketayotib, u qiz bilan xayrlashadi: "Menga o'xshama"-deydi. U ketganidan keyin otasi uzoq vaqt azob chekadi, qalbidagi dardni sharob bilan bostirishga harakat qiladi. Ona uyga qaytadi, oilada hayot avvalgidek davom etadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, qahramonning uyi, yoshlik xotiralari "sevgi tugunini" yechishga yordam beradi. Maktubda qahramon sevgidan, sevgan insoni bilan birga bo'lish baxtidan voz kechadi. Belgilangan jo'nash kundan azob chekib, asabiy taranglikdan kasal bo'lib qoladi. Bir oy ichida tuzalib ketgan qahramon o'zining sevgilisini uyiga qo'ng'iroq qiladi va uning oilasi bilan qolganini bilib oladi. Yosh ayolning sevgisidan voz kechishga qaror qilish uchun aql bovar qilmaydigan kuch talab qilindi. Ammo buning evaziga u o'z qalbida yo'qolgan uyg'unlikni topadi, bu unga turmush qurgan erkak bilan ikki yillik munosabatlarida birinchi marta "erkin nafas olish" imkonini berdi. Shu tariqa u o'zining his-tuyg'ularidan ko'ra besh farzandi va onasining taqdiri muhimroq bo'lib qolgan "o'sha ayol"ning qarorini takrorlaydi.

Shin Kyon Suk hikoyasini "Garmoniya turgan joyda" (풍금이 있던 자리) deb nomlagani bejiz emas. 풍금 so'zi o'zbek tiliga organ yoki garmoniya deb tarjima qilingan. Garmoniyani Koreyaga ancha oldin amerikaliklar olib kelishgan va tez tarqalishi va mashhurligiga qaramay, ko'pchilik koreyslar, ayniqsa qishloq aholisi uchun u begona musiqa asbobi bo'lib qolgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Торкунов А.В. «История Кореи. Новое прочтение».
<http://e-reading.club/djvureader.php/134993/406/TorkunovIstoriyaKorei.Novoeprochtenie.html>
2. Li Xvaxyon. Tarixda ayolning mustaqil hayoti. Seul, 2016. -B.14. 여성, 역사속의주체적인삶: 국학자료원.
3. Ким Н.Н., Хохлова Е.А. Эволюция социального положения женщин в Корее: от традиционного общества к современному // Восток № 3. 2017. С.109.
4. Li Sansu. Nasr haqida turli mavzularda suhbat (이상수. 테마별로읽는소설이야기. 집문당) Seoul,1995. - B. 100.
5. An Namyon. Zamonaviy jamiyat o'zgarishlarining nasrda ifodalash usullarining tadqiqi.(안남연. 현대사회의 변화와 소설의 대응 방법에 대한 연구.// 현대소설연구. 한국현대소설학회). Seoul. 1998. -B. 468.
6. Yun Che Un. Yolg'iz muhabbat xotiralarining yozuvlari // Asrimiz nasri, asrimiz yozuvchilari. Seoul, 1997.-B. 420. 서글픈 사랑의 비망록//우리시대의 소설, 우리시대의 작가-민음사
7. Shin Kyon Suk sosolchip . “Fisgarmoniya turgan joyda”. Seoul,1993.
8. Cho Namxyon. 1970-1980 yillar ayollar nasri va feminizm. 1990 yillar adabiyotii xususida munozara.조남현. 1970,1980년대여성소설과페미니즘. 1990 년대문학의담론. 문예출판사. Seoul. 1998
9. Kim Mixyon.Koreys ayollar nasri va feminizm.김미현. 한국여성소설과페미니즘. Seoul, 1996
10. Kwon Young-Min. Modern Korean Literature (II). //Seoul Journal of Korean Studies. Vol.14. December, 2001
11. Аслонова, Ш. И. (2020). ПРОБЛЕМЫ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ МОЛОДЁЖИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ. Интернаука, (21-1), 59-60.
12. Madaminovich, T. I. (2017). THE LINGUISTIC PECULIARITIES AND APPROPRIATE METHODS OF TRANSLATION. Восточно-европейский научный журнал, (12-4 (28)), 52-53.
13. ШВАЧКО, Е. В. (2017). Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в.: материалы междунар. науч.-творч. форума. 31 окт.–3 нояб. 2017 г./Челяб. гос. ин-т культуры; сост. ЕВ Швачко.–Челябинск: ЧГИК, 2017.–394 с. ISBN 978-5-94839-629-3.
14. Madaminovich, T. I., Khusanovich, K. B., Akhatovna, K. O., & Kholmamatovna, B. L. (2019). Features of the system of formation of compensatory competence among agricultural students as a means of filling in professional terminology. International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering, 8(11), 2202-2206.
15. Тухтасинов, И. М. (2014). НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНАЯ СПЕЦИФИКА СЛОЖНЫХ СЛОВ, ВЫРАЖАЮЩИХ ВНЕШНОСТЬ И ХАРАКТЕР ЧЕЛОВЕКА (НА МАТЕРИАЛЕ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ). Paradigmata poznání, (3), 74-78.
16. Тухтасинов, И. М. (2011). Сопоставительный анализ описания внешности человека в английском и узбекском языках (стилистический ракурс). Вестник Московского государственного лингвистического университета. Гуманитарные науки, (630), 105-110.
17. Тухтасинов, И. М. (2010). Продуктивные модели сложных слов, обозначающих внешние признаки человека в современном английском языке. Молодой ученый, (5-2), 47-50.

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

5 ЖИЛД, 3 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 5, НОМЕР 3

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 5, ISSUE 3

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000